


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



Ro'yxatga olindi: № BD-5120100-3.09
2019 yil "11" 08

**ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTI VA ADABIY JARAYON
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2019 yil "17" 08 dagi 4 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil "4" 10 dagi 892 -sonli buyrug'ining 2 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Rasulova U.Y. -TOShDO`TAU, "Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon" kafedrası dotsenti, f.f.n.
S.Sodiqov -TOShDO`TAU, "Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon" kafedrası professori, f.f.d.

Taqrizchilar:

Karimov B. - TOShDO`TAU professori, f.f.d.
Qahramonov Q. -TDPU professori, f.f.d.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019 yil "1" 07 dagi 11 - sonli bayonnoma).

Handwritten signature: P. Ig'ayev

Handwritten signature: B. R. y.

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

“Zamonaviy o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon” fani bevosita adabiy jarayondagi yangilanishlardan talabalarni boxabar qilishi bilan birga ularni baholashga o'rgatadi; bevosita ajdodlarimiz qoldirgan va bugungi kunda yaratilayotgan boy adabiy merosni o'rganish maqsadiga xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa talaba adabiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. “Hozirgi adabiy jarayon va yangi o'zbek adabiyoti” fani nafaqat o'zbek adabiyotida kechayotgan yangilanishlardan ham talabani xabardor qiladi. Fan ana shunday masalalari bilan dolzarblik kasb etadi.

“Zamonaviy o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon” fani talabani faol kitobxonlikka, badiiy asarni tahlil qila olish malakasini hosil qilishga, turli uslubga mansub ijodkorlar to'g'risida yaxlit tasavvur berishi jihatidan ahamiyatli sanaladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi – adabiy jarayondagi asosiy tamoyillar yuzasidan chuqur bilim berish, epik, lirik, dramatik asarlarning hozirgi davr bilan bog'liq qirralarini, xususan, milliy istiqlol g'oyalari ga dahldor jihatlarini talabalarga uqtirish mazkur fanning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, adabiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- eng muhim epik, lirik, dramatik asarlarni tahlil qilish, adabiy tanqidchilik bilan hozirgi adabiy jarayonni bog'lab tushuntirish kategoriyalari to'g'risida; yangi davr o'zbek adabiyotidagi ijodkorlar, ularning epik, lirik, dramatik asarlarini bilishi, tahlil qilish kategoriyalari to'g'risida **bilimga ega bo'lishi**,
- bugungi adabiyotda kechayotgan jarayonlarni tahlil qila olishi, o'zbek adabiyotining bugungi holatini dunyo adabiyotida kechayotgan jarayonlarga qiyoslashi, yangi davr adabiyotida kechayotgan jarayonlarni tahlil qila olishi, o'zbek adabiyotining bugungi holatini dunyo adabiyotida kechayotgan jarayonlarga qiyoslay **ko'nikmaga ega bo'lishi**,
- badiiy asarni tushunib, anglab, tahlil qilib o'qiy olishi, badiiy ijod falsafasini, psixologiyasini adabiy siymolarning ijod laboratoriyasi misolida tushunish **malakalariga ega bo'lishi lozim**.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. Fanning umumiy mohiyati

1-mavzu. Zamonaviy o'zbek adabiyoti. Bu adabiyotning asosiy xususiyatlari

Yangi o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, yetakchi belgilari. Yangi o'zbek adabiyotini davrlashtirish. Yangi o'zbek adabiyoti taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Ma'rifatparvarlik yoki jadid adabiyoti. Yangi o'zbek adabiyotining realizm bosqichi (1916-1932 yillar. Birinchi bosqichi (1932-1954 yillar). Ikkinchi bosqichi (1954-1991 yillar). Milliy istiqlol davri o'zbek adabiyoti. XX asr adabiyoti tarixiga oid bahs-munozaralar.

2-mavzu. XX asrning 20-50 - yillari adabiyoti

Oktabr to'ntarishi va sho'ro adabiyotining vujudga kelishi. Adabiyotda hokim mafkura g'oyalarning yetakchilik qila boshlashi. Adabiy jarayon ikki yo'nalish - chinakam badiiyatga daxldor bo'lgan adabiy yo'nalish va sho'ro g'oyalarni ilgari suruvchi adabiy yo'nalishning vujudga kelishi. 20-30-yillar adabiyotida zamonasozlik, shaxsga sig'inish illatlarining namoyon bo'lish sabab va oqibatlari. Bu davrda badiiy mukammal asarlarda davr va shaxs fojiasining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi. Adabiyotda yangi janrlarning takomillashuvi. Ikkinchi jahon urushi davri adabiyotida yuksak vatanparvarlik motivlarining yetakchilik qilishi. Bu davr darमतurgiyasida tarixiy mavzu va xalq qahramonlari obrazini yaratishga e'tiborning kuchayishi.

Urushdan keyingi davr adabiyotida "konfliktsizlik nazariyasi" illatlarining yetkazgan zararli oqibatlari. Adabiyotda soxta konflikt va optimistik ruhning ustuvorlik qilishi. Mafkuraviy tuzum va qatag'onlik siyosatining yangicha ko'rinishlari. Madaniy meros, xususan, "Alpomish" dostoniga noxolis munosabat.

3-mavzu. Ma'rifatparvarlik yoki jadid adabiyoti

O'zbek adabiyotida realizm bosqichi

Bu bosqich XX asr boshlarida 1916-yilgacha bo'lgan davrni o'z ishiga olishi. Unda jadidizm g'oyalarning ustunligi. Bu davrda nodir badiiy kashfiyotlar vujudga kelmaganligi.

Bu davr 1916-yildan 1932-yilgacha davom etishi. Realizm haqida ma'lumot. Realizmning o'zbek adabiyotidagi dastlabki namunalari.

4-mavzu. Qodiriy hayoti va ijodi.

Ushbu mavzu orqali talabalarga A.Qodiriy hayoti va ijodi haqida bilim berish.

Yozuvchi ijodida vatan va istiqlol motivlari. A.Qodiriy romanlarida poetik obraz va badiiy mahorat muammosi yoritiladi. Qodiriy hajviyotining o'ziga xosligi aniqlanadi.

Yozuvchining ilk asarlari. "O'tkan kunlar"-birinchi o'zbek romani. "Mehrobdan chayon" romanining tahlili.

5-mavzu. Cho'lpon hayoti va ijodi.

Adib biografiyasi va ilk hikoyalari. Cho'lponning XX asr 20-yillar she'riyati. Uning 30-yillar lirikasida murosasozlik ohanglari.

Cho'lpon prozasi orqali Yozuvchi badiiy mahoratini ko'rsatish. Adib hikoyalarda xalq turmushi, ichdan shirib borgan jamiyatning fosh etilishi. Yozuvchining "Kecha va kunduz" romani birinshi o'zbek dilogiyasi ekanligi. Unda XX asr o'zbek nasriga xos bo'lgan ruhiy tahlilning dastlabki ko'rinishi namoyon bo'lganligi, shaxs erki, hukmron mafkura va jamiyat o'rtasidagi nomuvofiqlik, oilaviy-maishiy dramaning aks etishi.

6-mavzu. G'afur G'ulom, Oybek va Abdulla Qahhor ijodi

G'afur G'ulom o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalardan biri sifatida. Tarjimai holi va adabiy merosi haqida ma'lumot. G'afur G'ulomning 20-30-yillardagi ijodi. G'afur G'ulom hikoyalari satira va yumor. Adibning publitsistik qarashlari. G'afur G'ulom qissalari. "Shum bola" - yumoristik asar. G'afur G'ulom qissalarida davr va shaxs fojiasi. G'ulom she'riyatida falsafiy teranlik va badiiy mukammallik. Shoir ijodida zamonaviylik va shaxsga sig'inish motivlari. Bu holning sabab va oqibatlari. Mustaqillik yillarida G'ulom ijodiga yangicha munosabat.

Adibning adabiy merosi haqida ma'lumot. Oybek lirikasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Oybekning 30-yillar ijodi. Oybek dostonlari ijtimoiy hodisalarning badiiy talqini. Oybek tarjimalari. Oybekning adabiy-estetik qarashlari. Oybek - romannavis. "Qutlug' qon" romanida davr va shaxs fojiasi. "Navoiy" tarixiy romanida ulug' alloma obrazi. Adabiyotshunos olim sifatidagi faoliyati. Oybekning ilmiy-ijodiy merosi.

A.Qahhor - hikoyanavis. O'tmish mavzudagi hikoyalari davr va shaxs tasviri. Zamonaviy mavzudagi hikoyalari optimistik ruhning aks etishi. A.Qahhor - romannavis. "Sarob" romani tevarigidagi bahslar. A.Qahhor - tarjimon. Adibning estetik qarashlari. "Yoshlar bilan suhbat" asarida Yozuvchi adabiy-estetik qarashlarining namoyon bo'lishi.

7-mavzu. Hamid Olimjon va Maqsud Shayxzoda ijodiy merosi

H.Olimjon - baxt va shodlik kuychisi. H.Olimjon - tarjimon, adabiyotshunos. Hamid Olimjonning ertak va dostonlari. Hamid Olimjon ijodida xalq og'zaki ijodining o'imi. Shoir lirikasida tabiat tasviri. Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi vatanparvarlik motivlari. "Jinoyat" dramasi davr va shaxs fojiasi. Shoir ijodiga yangicha yondashuvlar.

Maqsud Shayxzodaning 30-yillar she'riyati. Tragediyada zohiriy va botiniy konflikt. Dramatik asarlarida tarixiy shaxslar talqini. Urush yillariga xos jangovor lirika. "Toshkentnoina" dostonining badiiy talqinlari. Shayxzoda-yirik adabiyotshunos olim, mohir pedagog sifatida.

8-mavzu. Mirtemir va Zulfiya ijodi

Mirtemir ijodida davr ziddiyatlarining tasviri. Shoir ijodida tabiat lirikasi. Mirtemir - tarjimon. Shoir ijodida shaxsiy kechinmalar ifodasining lirik tasviri.

Zulfiya she'riyatida hijron va sadoqat motivi. Baxt va sevgi, g'am-hijron shoira lirikasining qo'sh qanoti sifatida. "Xotiram siniqlari" poemasi.

9-mavzu. Said Ahmad, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov ijodiy merosi

S.Ahmad romanlarida realistik hayot tasviri. "Ufq" trilogiyasi o'zbek xalqining milliy turmush tarzi va mehnatkash xalq hayotini ifodalovchi asar. Said Ahmad - hikoyanavis, dramaturg. Adib ijodida istiqlol davri imkoniyatlarining aks etishi. Said Ahmad satirik va yumoristik asarlar ustasi. Prozada tragik fojeliqning lirik ifodasi.

O.Yoqubov asarlarida ma'naviyat masalasi – bosh pafos sifatida. O.Yoqubov romanchiligi. Tarixiy romanlarda hayot haqiqati va badiiy to'qima. Adibning istiqlol davri ijodida ruhiyat manzaralarining kashf etilishi. "Alvido, Moriko" qissasi, "Bir koshona sirlari" dramasi inson ruhiyati kechinmalari tasviri.

P.Qodirov qissalarida shaxs va ma'naviyat masalalarining yoritilishi. P.Qodirov mahoratli romannavis. Bobur hayoti va faoliyatini o'rganishda adib ijodining tutgan o'rni. "Ona lochin vidosi" romanida temuriylar qismatining yangicha talqinlari. P.Qodirov - adabiyoshunos olim va munaqqid.

10-mavzu. Erkin Vohidov va A.Oripov ijodi

E.Vohidov she'riyatida an'ana va novatorlik "Yoshlik" devoni va zamonaviy g'azalchilik muammolari. Shoir dostonlarida shaxs erki va ma'naviyat-ma'rifat masalalarining yoritilishi. E.Vohidovning istiqlol yillaridagi ijodi.

A.Oripov she'riyatida badiiy mukammallik va falsafiy teranlik. A.Oripov – tarjimon. A.Oripovning istiqlol yillaridagi ijodi. Shoir dramatik dostonlarida ma'naviyat masalasining badiiy talqini. "Haj daftari" turkumiga kiruvchi she'rlarida islomiy-axloqiy masalalarning yoritilishi.

11-mavzu. Tog'ay Murod hayoti va ijodi

Adib ijodida milliylikning o'ziga xos shaklda namoyon bo'lishi. Badiiy asarda syujet va kompozitsiya yaratishdagi novatorlik. Adib qissalarida Surxon koloritining yoritilishi. Adib ijodida milliy va ma'naviy qadriyatlar masalasining zurur topishi. Adib romanlarida shaxs fojiasi talqini. Xalq fojiasining badiiy bo'yoqlarda aks etishi.

2-modul. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor

1-mavzu. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor

Istiqlol davrida adabiyot sohasidagi yangilanishlar. Adabiy jarayonning asosiy tamoyillari. Adabiy jarayon va jahon adabiyotidagi yangiliklar, jamiyat hayotini real va obrazli ifodalash. xarakter yaratishdagi o'ziga xosliklar.

2-mavzu. Hozirgi adabiy jarayon fanining adabiyotshunoslikdagi o'рни

Zamonaviy asarlar mohiyati, ijod jarayonini baholashda adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi bilan bog'liqlik. Fanning vazifalari. Hozirgi adabiy jarayonga xos jihatlari

3-mavzu. Globallashuv davri o'zbek adabiyoti

Mustaqillik davrida yaratilgan badiiy asarlar. Yangilanishlar jarayonida inson mohiyati masalasi. Onmaviy madaniyatning kitobxon ma'naviyatiga ta'siri muammosi. Badiiy adabiyotda janrlar sinkretizmi masalasi. San'atlararo aloqadorlik.

4-mavzu. Hozirgi o'zbek she'riyatida janrlar

Hozirgi she'riyatning asosiy xususiyatlari. She'riyatda komil insonni shakllantirishda milliy g'oya va mafkuraning roli. She'riyatdagi shakliy izlanishlar.

Hozirgi o'zbek adabiyotidagi realistik tasvir va modern yo'nalishi aro munosabatlar: bahslar, konsepsivalar, hozirgi she'riyat: yangi o'zbek poeziyasida vaznlar, mavzular, lirik qahramon

5-mavzu. Hozirgi nasr xususiyatlari

Hozirgi hikoyachilikdagi yangilanish tamoyillari. Hikoya janri mohiyati. Undagi uslubiy izlanishlar. Hikoyada qahramon masalasi.

6-mavzu. Hozirgi o'zbek qissalari

Hozirgi qissachilikdagi yetakchi tamoyillar. Janr tarixi haqida ma'lumot. Qissaning janr mohiyati. Qissa mavzulari tahlili. Tarixiy, detektiv, fantastik, badiiy-tahliliy, biografik qissalar. O'zbek qissalarida qahramon muammosi.

7-mavzu. Hozirgi o'zbek romanchiligi

O'zbek romanchiligi namunalar. Mustaqillik davrida yaratilgan o'zbek romaniga xos xususiyatlar. Hozirgi romanlarda falsafiy-estetik asos-konsepsiya, hozirgi tarixiy romanlar, hozirgi trilogiyalar. Hozirgi o'zbek romanchiligidagi janriy izlanishlar.

8-mavzu. Muallif –qahramon-kitobxon munosabati

Ijodkor niyati. Ijod laboratoriyasi. Qahramon dunyoqarashi, mohiyatini anglash. Asami uqish jarayoni, muallif maqsad, niyatini tushunish.

9-mavzu. Hozirgi dramaturgiyaning umumiy ko'rinishi

Hozirgi dramalar janri, qahramonlar, tarixiy shaxslar haqidagi dramalar muammosi. Mumtoz asarlarning hozirgi paytda o'rganilishi, funksiyasi. Hozirgi adabiy jarayonga xos qonuniyatlar.

10-mavzu. Yosh ijodkorlar faoliyati

Yoshlar ijodida vatan, milliy o'zlik mavzusi. Yoshlar uyushmasi va oliy ta'lim bilan hamkorlik. Matbuotdagi asarlarning tahlili.

IV. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulot talabalarni adabiy jarayon va yangi o'zbek adabiyotiga doir ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni adabiy jarayonda paydo bo'lgan turli janrdagi asarlarni nazariy jihatdan tahlil va talqin qilishga yo'naltiradi. Talabalar to'plagan bilimlarini dars vaqtida munozara yoki ma'ruza ko'rinishida himoya qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar hozirgi adabiy jarayon va yangi o'zbek adabiyoti fanining o'ziga xos xususiyatlariga doir ilmiy masalalarni o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Hozirgi o'zbek romanlari tahlili.
2. Hozirgi o'zbek qissalarida yoshlar obrazi.
3. Hozirgi hikoyachilik: janriy izlanishlar.
4. Hozirgi o'zbek she'riyati tahlili.
5. Hozirgi bolalar adabiyoti.
6. O'zbek dramaturgiyasida qahramon masalasi.
7. Yosh nosirlar asarlari tahlili.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

V. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari talabalarni hozirgi adabiy jarayonga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, adabiy jarayondagi lirik, epik, dramatik asarlarni tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chog'ida munozara yoki ma'ruza shaklida himoya qiladi. Seminar mashg'ulotlarida talabalar hozirgi adabiy jarayonning bir qator ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

Seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani poetikasi.
2. Cho'lpon she'riyati poetikasi.
3. «Kecha va kunduz» romanida xarakter yaratish mahorati.
4. G'.G'ulom she'riyatida falsafiylik va badiiy mahorat.
5. Oybek she'riyatida sof lirika.

6. Oybek – romannavis.
7. «Sarob» romanida ruhiyat talqini.
8. Mirtemir va Zulfiya sheʼriyati.
9. S. Ahmadning «Ufq» trilogiyasida davr va shaxs talqini.
10. O. Yoqubov romanlarida tarixiylik va zamonaviylik.
11. Pirmiqul Qodirov tarixiy romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy toʻqima.
12. Erkin Vohidov sheʼriyati.
13. Abdulla Oripov sheʼriyati poetikasi.
14. Oʻtkir Hoshimov romanlari.
15. Togʻay Murod qissa va romanlarida shaxs fojiasi.
16. Roman. qissa, hikoyada tarixiy shaxslar talqini.
17. Zamonaviy adabiyotda ayol xarakteri.
18. Qissada milliy anʼana talqini.
19. Hozirgi oʻzbek lirikasidagi oʻziga xosliklar.
20. Hozirgi oʻzbek hikoyasida qahramonlar masalasi.
21. Hozirgi komediyalardagi yutuq va kamchiliklar.
22. Hozirgi oʻzbek adabiyotida maʼrifiy masalalarning badiiy talqini.

Izoh: Mazkur roʻyxatdagi mavzulardan seminar mashgʻulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

VI. Mustaqil taʼlim

“Zamonaviy oʻzbek adabiyoti va adabiy jarayon” fanini oʻrganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy masalalarni yechishda koʻnikma hosil qilish uchun mustaqil taʼlim tizimiga asoslanib, kafedra oʻqituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qoʻshimcha adabiyotlarni oʻrganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashgʻulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, koʻrgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashgʻulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashgʻulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va oʻquv qoʻllanmalar boʻyicha fan boblari va mavzularini oʻrganish;
- tarqatma materiallar boʻyicha maʼruza qismini oʻzlashtirish;
- maxsus adabiyotlar boʻyicha fan boʻlimlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning oʻquv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bogʻliq boʻlgan fan boʻlimlari va mavzularini chuqur oʻrganish;
- faol va muammoli oʻqitish uslubidan foydalaniladigan oʻquv mashgʻulotlari;
- masofaviy taʼlim.

Mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

1. "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilingan romanlar tahlili.
2. "Yoshlik" jurnalida e'lon qilingan qissalar tahlili.
3. "Kitob dunyosi" gazetasida e'lon qilingan hikoyalar tahlili.
4. Normurod Norqobilovning qissalari tahlili.
5. Isajon Sultonning romanlari tahlili.
6. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani atrofida munozaralar.
7. H.Olimjon ijodining adabiyoshunoslikdagi talqini.
8. Oybek lirikasida tabiat va inson munosabatlari tasviri.
9. G'.G'ulom – qissanavis.
10. M.Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasida vatanparvarlik va millatparvarlik motivlari.
11. O.Yoqubov – qissanavis.
12. A.Muxtor she'riyatiga xos poetik obrazlarni o'rganing.
13. E.Vohidovning istiqlol davridagi ijodi.
14. O'.Hoshimovning "Tushda kechgan unrlar" romanida fojiaiylik.
15. Sh.Xolmirzayev romanlarida davr va shaxs fojiasi talqini.
16. A.Oripov she'riyatida sevgi-muhabbat motivlari.
17. S.Ahmadning "Ufq" trilogiyasida davr va shaxs talqini.
18. "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi Dehqonqul obrazi ramziy-fojiaiy obraz sifatida.

Izoh: Tavsiya qilingan mazkur mavzulardan mustaqil ta'lim uchun uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish mumkin.

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. Т.: – Шарқ, 2007.
2. Мирзасев С. XX аср ўзбек адабиёти. – Т., Янги аср авлоди. 2005.
3. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаравон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Алимбеков А. Юлдузнинг беги кирраси. – Т.: Мухаррир, 2012.
4. Аъзам Э. Шовқин. Т.: Ўзбекистон, 2011.
5. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006.
6. Иўлдошев Қ. Ёрик сўз. – Т.: Янги аср авлоди. 2007.
7. Каримов Б. Қодирий соғинчи. – Т.: Фан, 2004.
8. Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърят. – Т.: 2006.
9. Норматов У. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. – Т.: 2009.
10. Расулов А. Бетакрор ўзлик. – Т.: Mumtoz so'z, 2009.
11. Расулов А. Услуб – истеъдод портрети. – Т.: 2013.
12. Расулова У. XX аср ўзбек қиссалари тадрижи. – Т.: 2012.
13. Санжар Содик. Ижоднинг ўтгиз лаҳзаси. – Т.: Шарқ, 2005.
14. Султон И. Озод. Т.: Шарқ, 2012.
15. Улугов А. Қалб қандили. Академнашр, 2013.
16. Дўстмуҳаммад Х. Ижод – кўнгил мунавварлиги. – Т.: Мумтоз сўз, 2010.
17. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004.
18. Ўзбек модерн шеъряти. Т.: Янги аср авлоди, 2003.
19. Қуронов Д. Завқимдан бир шингил. – Т.: 2013.
20. Қўшқонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Т.: Мерос, 1994.
21. Гафуров И. Ҳаё – халоскор. – Т.: 2006.
22. Ҳамдамов У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Т.: 2002.
23. Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи. – Т.: Янги аср авлоди, 2002.
24. Ҳаққулов И. Бадиий ижод иқлими. – Т.: 2010.
25. Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon. Mumtoz so'z, 2014.

Интернет сайтлари

1. www.literature.uz
2. <http://ziyonet.tj/>
3. <http://natlib.uz>
4. <http://www.bukmistu.ru>

5. <http://www.tutoronline.ru>